



**SIRDARYO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
BOSHQARMASI BOSHIG'INING
BUYRUG'I**

**Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy
lavozimlarining malaka tavsiflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida" 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim maktab (maktab-internat)larini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 13-yanvardagi 9-son buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 13-yanvardagi 9-son buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Buyruq bilan quyidagilar

Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga

- bir hafta muddatda umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlarini malaka tavsiflari bilan to'liq tanishtirilishini ta'minlash;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) xodimlari uchun ilova bilan tasdiqlanayotgan malaka tavsiflaridan ish jarayonida foydalanish va ularni amalda qo'llash bo'yicha seminarlar tashkil etish va tushuntirish ishlarini olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) direktorlari tomonidan xodimlarni ishga qabul qilish va ularni boshqa lavozimga o'tkazishda mazkur malaka tavsiflariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

malaka tavsiflariga mos kelmagan xodimlar bilan amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish choralari ko'rilishini nazorat qilish vazifalar yuklatilganligi **ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

3. Matbuot kotibi (Yu.Aloviddinova) tasdiqlangan malaka tavsiflarini rasmiy veb-saytiga joylashtirishni ta'minlasin.

4. Nazorat tahlil, ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash shubasi boshlig'i (Z.Tursunova) ushbu buyruqni bir kun muddatda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga yetkazsin.

5. Sirdaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining "Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash haqida"gi 2025-yil 26-maydagi 6/148-son buyrug'ining 12-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni boshliqning birinchi o'rinbosari A.Abduraxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i



N.Xolbayeva

19 yanvar 2026 yil.
6/12-son